

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING GLOBAL TRANSPORT LOGISTICAL
TARMOQLARIGA INTEGRATSIYASINI CHUQURLASHTIRISH VA MILLIY
TRANSPORT TIZIMINING SALOHIYATINI OSHIRISH**

Imomova Marjona Ermahmat qizi

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15678230>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar va global logistikada qilingan ishlarning natijasi va qay tarzda qilinish tartibi, xalqaro tajribada yashil logistika haqida va O'zbekistonda amalga oshirish usullari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Logistika, Yashillik, Avto magistral Kavkaz davlatlari, Ekologiya, Tehnologiyalar.

Logistika to'liq holda iste'molchi uchun ishlaydi, chunki logistikaning asosiy maqsadi yuklar va yo'lovchilarni belgilangan muddatda, belgilangan hajmda, belgilangan joyga eng kam mehnat va moddiy resurslarni sarflagan holda yetkazib berish hamda har xil toifadagi yo'lovchilarning tashishga bo'lgan talabini to'liq qondirishdan iborat.

2030-yil uchun qabul qilingan taraqqiyot strategiyasida quydagilar maqsad qilib olingan:

Respublika hududi orqali o'tadigan tranzit yuk oqimini 16 million tonnagacha oshirish ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich 16 million tonnani emas balki 1,521,2 million tonnani tasdiqlaydigan etib o'z tarixida eng yuqori natijani qayt edi, Agar shu yo'sinda davom etsa O'zbekistonning logistika sohasidagi retingi yuqoriladi.

Yo'lovchi hamda yuk tashish xizmatlarining hajmini uch baravarga ko'paytirish, 56 ming kilometr avtomobil yo'llarini barpo etish va ta'mirlash asosiy maqsad sifatida belgilangan va bu yo'nalishda amaliy ishlar olib borilmoqda. qilinayotgan ishlar misolida O'zbekistonni shiromoliy yo'nalishida A380 magistral yo'li O'zbekistonda Qozog'iston va Yevropa bilan bog'laydigan yo'lining 240 km qismi qaytadan rekonstruksiya qilindi va foydalanishga topshirildi. Bu O'zbekistonning avto transport logistika salohiyatini yuqori darajaga chiqarishga xizmat qilayabdi.¹

Hozirgi kunda yurtimizda logistika markazlari o'z faoliyatini olib bormoqda. Qonun ijrosini taminlash maqsadida bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilib kelmoqda, shu jumladan hozirgi kunda umumiy hisobda o'zbekistonda 10800 ta logistika markazlari mavjud. Shundan hozirgi kunda 26 ta markaz xalqaro yetkazib berish ishlarini olib bormoqda bunda fura.

Man trak va tirillerlar bundan tashqari respublikaning ichki hududlarida ham yuklarni yetkazib berish yaxshi rivojlanmoqda

Transport-logistika markazlari har qanday turdagi transport orqali kirib keluvchi va chiqariluvchi yuklarni qabul qilib olish, omborlarga joylashtirish, saqlash, ularni qayta ishlash, qadoqlash va taqsimlash xizmatlarini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu markazlar transport vositalarini saqlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini ham amalga oshiradi.

¹ <https://lex.uz/ru/>

Transport-logistika markazlari bojxona, logistika, fitosanitariya, veterinariya, sanitariya-epidemiologiya, ekologiya, sertifikatlashtirish kabi xizmatlar bilan bir qatorda, yuklarni eksport-import qilishda qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa xizmat turlarini ham to'liq taqdim etishi mumkin.²

Maxsulotlarni eksport va importini yuqoriga ko'tarish maqsadida chegara hududida karantin zonalarini tashkil etilayabdi, bu logistika tarmog'ida maxsulotlarni tez va sifati saqlangan holda olib borib berish va bojxona tekshiruvlarning kamayishiga ijobiy tasir ko'rsatayabdi.

Xalqaro transport-logistika markazlari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi orqali harakatlanadigan yuklar hamda transport vositalariga oid jarayonlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq transport nazoratini, shu bilan birga bojxona va chegara operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallanganidir.

Avtomobil transporti iqlim o'zgarishiga yo'l o'tkazish va yuqori yukni transport qilish bilan ta'sir o'tkazada, bu transport turi texnologik innovatsiyalar orqali o'zgarishlarga tayyorlanmoqda. Ma'lumotlar avtomobil transporti sohasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda zamonaviy innovatsion yechimlarning joriy etilayotganini isbotlaydi.

Butun dunyoda global ob-havoning yomonlashi sababli logistikas sohasidagi yuk mashinalari avya qatnovlardagi samaliyotlar va dengiz transportidagi kemalar o'zidan sezilarli zararli gazlarni chiqarmoqda bu O'zbekiston uchun ham juida zararli va jarayon shu tarzda davom etsa transport logistikasi rivojlanish o'rniga ko'proq orqaga qaytish kuzatiladi. O'zbekistonda ham yashil logistika siyosatini olib kirish kerak.

Yashil logistika bu logistika jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirib, iste'molchilarga mahsulotlarni eng kam xarajatlar bilan, kelishilgan vaqtda yetkazib berish va bu jarayonda atrof-muhitga bo'ladigan salbiy ta'sirni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi.

Ya'ni, bu uslubda buyurtma tez, iqtisodiy va ekologik jihatdan bezarar shaklda yetkazilishi kerak. Bu tizim chiqindilarni samarali boshqarish, utilizatsiya qilish, qadoqlash, qayta ishlash, energiya sarfini kamaytirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Barcha bu ishlar logistika sohasini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish orqali amalga oshiriladi. Ekologik talablarga javob beradigan logistika tizimida asosan uchta tamoyil ustuvor hisoblanadi — iqtisodiy manfaat, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlik. Mahsulotni yetkazish jarayonida tabiatga minimal ta'sir ko'rsatish bilan birga, iqtisodiy samaradorlikka erishish muhim.

Qadoqlashda joy tejash, xomashyoni qayta ishlash imkonini ko'rib chiqish kabi omillar ham inobatga olinadi. Umuman, barcha bosqichlar ekologik toza va sifatli mahsulotni iste'molchiga tezkor yetkazib berishga qaratilgan bo'ladi. Bu jarayonlarda raqamli texnologiyalar va zamonaviy uskunalar katta ahamiyatga ega³

O'tkazilgan tatqiqotlarga ko'ra O'zbekistonda yashil logistikani joriy etsa quydagi yutuqlarga erishish kutilmoqda.

1. Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish

Ekologik xavfsiz transportga o'tish karbonat angidrid chiqindilarini sezilarli darajada qisqartiradi.

² <https://lex.uz/docs/>

³ <https://yuz.uz/news/“Янги Ўзбекистон” газетасининг 06.04.23 й, 66-сони>

Marshrutlarni samarali rejalashtirish va alternativ yoqilg'i turlaridan foydalanishga qaratilgan logistika jarayonlari havoning tozaligi va sog'lom tabiatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq muddatda bu chora-tadbirlar global iqlim muammolarini yumshatishda muhim rol o'ynaydi.

2.Uzoq muddatli iqtisodiy foyda

Yashil logistika tamoyillarini qo'llash, masalan, elektr transport vositalari yoki ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritish, dastlabki bosqichda xarajatlarni talab qilishi mumkin. Biroq, uzoq muddatda bu yo'nalish yoqilg'i iste'molini kamaytirish va texnik xizmat xarajatlarini qisqartirish orqali korxonalar uchun moliyaviy jihatdan foydali bo'ladi.

3.Normativ talablarga moslashuvchanlik

Jahon miqyosida hukumatlar chiqindilarni kamaytirishga oid qat'iy me'yorlarni joriy etmoqda. Yashil transportdan foydalanish orqali tashkilotlar ushbu ekologik talablarni bajaribgina qolmay, balki muqobil jazolardan saqlanib, barqaror rivojlanish maqsadlariga o'z hissasini qo'shadi.

4. Kengaytirilgan brend tasviri

Zamonaviy xaridorlar ekologik mas'uliyatga katta e'tibor qaratishmoqda. Yashil logistikaga ustuvor ahamiyat beradigan kompaniyalar mijozlarning sodiqligini oshiradilar, chunki barqarorlik mas'uliyatli biznes amaliyotlarining aksi sifatida qaraladi. Bu faqat yaxshilik qilish haqida emas; bu mijozlar qadriyatlarini bilan rezonanslash va brendingizni farqlash haqida.⁴

Xalqaro tajribalarga ko'ra Ozarbayjon Turkiya Guruziya va boshqa yevropa mamlakatlari yashil logistikani qaqbul qilgan, bu samarali foyda berib kelmoqda.

Ozorbayjonda yashil logistika konsepsiyalari temir yo'l tarnsportiga alohida e'tibor qaratgan holda joriy etilmoqda. Bu yondashuv ekologik ta'sirini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.⁵

Gruziyada USAID tom,onidanm moliyalashtirilgan „Yashil transport va logistika dasturi” amalga oshirilmoqda. Bu dastur transport tizimini modernizatsiya qilish va ekologik ta'sirini kamaytirishga qaratilgan.⁶

Turkiyada Ekol Logistics kompaniyasi „ Yashil logistika sertifikatini” ni olgan birinchi kompaniya bo'lib, bu sertifikat ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliyotlarni tasdiqlaydi. ⁷

Takliflar:Yuqorida sanab o'tilgan Kavkaz orti davlatlari kabi yuk mashinalari va barcha transport vositalari elektr quvvatlash tizimiga o'tgan. O'zbekistonda ham yashil logistikaga bosqichma bosqich o'tilsa ekologiyada sezilarli o'zgarishlar boshlanadi ,va raqamli texnologiyalarga yangi uskunalar jalb etiladi.

Xulosa: O'zbekistonning global transport-logistika tizimiga integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va xalqaro savdoni kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

⁴ <https://zeorouteplanner.com/uz/y>

⁵ https://www.researchgate.net/publication/389938197_Green_Logistics_Perspectives_in_Azerbaijan

⁶ <https://www.highergov.com/contract-forecast/usaids-green-transportation-and-logistics-program-1071648/>

⁷ <https://www.ekol.com/en/ekol-becomes-the-first-company-to-receive-a-green-logistics-certificate-for-its-sustainable-business-practices-in-turkey/>

Maqolada ta'kidlanganidek, logistika sohasini takomillashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit yuklarni tashish hajmini oshirish, transport-logistika markazlarini tashkil etish va "yashil logistika" tamoyillarini joriy etish O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshiradi va mintaqaviy hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Xususan, Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida mamlakat o'rnini yaxshilash, eksport yuklarini tashish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va transport-logistika sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardir. Shu bilan birga, avtomobil transportining iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida "yashil logistika" tamoyillarini joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. "Transportation: A Supply Chain Perspective" - John J. Coyle, Robert A. Novack, Brian Gibson, and Edward J
2. "Logistics & Transportation: Design and planning" - John J. Coyle, Robert A. Novack, and Brian Gibson
3. "Green Logistics: Improving the Environmental Sustainability of Logistics" - Alan McKinnon, Michael Browne, Anthony Whiteing, and Maja Piecy
4. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
5. <https://lex.uz/docs/-5563039>
6. <https://www.ekol.com/en/ekol-becomes-the-first-company-to-receive-a-green-logistics-certificate-for-its-sustainable-business-practices-in-turkey/>
7. https://www.researchgate.net/publication/389938197_Green_Logistics_Perspectives_in_Azerbaijan
8. <https://www.highergov.com/contract-forecast/usaaid-green-transportation-and-logistics-program-1071648/>